

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI**



GLOBALLASHUV DAVRIDA TURKOLOGIYA RIVOJI MASALALARI VA TA'LIM

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI**

**Samarqand shahri
2025-yil 23-24-aprel**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**GLOBALLASHUV DAVRIDA TURKOLOGIYA
RIVOJI MASALALARI VA TA'LIM**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI**

2025-yil 23-24-aprel

Samarqand -2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON-FINLANDIYA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**GLOBALLASHUV DAVRIDA TURKOLOGIYA
RIVOJI MASALALARI VA TA'LIM**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI**

2025-yil 23-24-aprel

Samarqand – 2025



**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

УЗБЕКСКО-ФИНСКИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

**ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ТЮРКОЛОГИИ В
ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ОБРАЗОВАНИЕ**

Материалы международной научно-практической конференции

23-24-апреля 2025 года

Самарканд - 2025

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

UZBEK-FINNISH PEDAGOGICAL INSTITUTE

**ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF TURKOLOGY
IN THE ERA OF GLOBALIZATION AND
EDUCATION**

Proceedings of the international scientific-practical conference

April 23-24, 2025

Samarkand – 2025



**YÜKSEKÖĞRETİM, BİLİM VE YENİLİK BAKANLIĞI
ÖZBEK-FİN PEDAGOJİK ENSTİTÜSÜ**

Uluslararası bilimsel ve uygulamalı konferansın bildirileri

**KÜRESELLEŞME VE EĞİTİM ÇAĞINDA
TÜRKOLOJİNİN GELİŞİM SORUNLARI**

23-24 Nisan 2025

Semer kant - 2025

UO'K 811.512.1

Globallashuv davrida turkologiya rivoji masalalari va ta'lim. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand: 2025. – 596 bet.

"Globallashuv davrida turkologiya rivoji masalalari va ta'lim" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallarida integratsion jarayonlarda turkologiya sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, turkologiya sohasida mavjud muammolar va ularning yechimlari, mazkur yo'nalishdagi xalqaro tajribalar va ularning o'rganilishi, til va adabiyot ta'limida jahon talablariga mos innovatsion metodlar va texnologiyalarning qo'llanilishi kabi masalalar yoritilgan. Ushbu to'plam xalqaro va respublika miqyosida turkologiya sohasida professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish imkonini beradi va bu boradagi izlanishlar uchun tadqiqot manbasi sifatida xizmat qiladi.

**Bosh muharrir:
Sh.Sh.Negmatova**

**Mas'ul muharrir:
A.R.Safarov**

Tahrir hay'ati a'zolari:

I.B.Utayeva	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Tillar fakulteti dekani, p.f.f.d. (PhD)	A.S.Ismoilov	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i
I.H.Yoqubov	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD)	Sh.T.Normo'minov	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
B.S.Abdurazzoqov	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD)	F.N.Bo'riyeva	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchi, f.f.f.d. (PhD)
T.B.Mavlyanova	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Rus tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.f.d. (PhD)	O.N.Anorqulova	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
S.A.Yuldosheva	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.n.	F.H.Nurmonov	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti, f.f.f.d. (PhD)
L.I.Usarova	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD)	S.Sh.Pardayev	O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti, f.f.f.d. (PhD)

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldirlar.

© O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, 2025

esa sutdan olinadi. Bugungi termen bilan nomlaydigan bo'lsak suzmadir. Bir bo'lak suzmagina sutni qatigga aylantirishga qodir. Ikkinchi taom esa qimiz bo'lib unda kerakli bo'lgan masalliqlar buya suti va sut kislotasi, yani achitqi. Qimiz borasida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: "Qimiz — biya sutidan tayyorlanadigan shifobaxsh ichimlik. Har 3 soatda bir marta sog'iladigan biya sutini sut kislotasi bakteriyalari va achitqilari bilan yo'li bilan maxsus meshlarda aralashtirib tayyorlanadi. Tayyor qimiz meshlarda saqlanadi, tashiladi". [8] "**Qimiz ichgan qarimas, Qarisa ham, dard ko'rmas.// Qimiz ichganing — qirchillaganing, Sut ichganing — so'lqillaganing**"[4.449] singari maqollarda esa darga shifo taom sifatida ulug'lanadi. Ya'ni bu taom o'pka kasalligida shifobaxsh ichimlik sifatida tavsiya etiladi. Shu bilan bir qatorda quvvatni oshiruvchi xususiyatga ega bo'lganligi bois ushbu sut masallig'idan yuqoriroq o'ringa qo'yilgan. Sut insonni vaznini oshirish borasidagi qarashlar mazkur maqolda ibratlidir. Demak, sutni ko'p tanovvul etilsa, vazn oshishiga olib keladi. Qimiz esa inson tanasiga keraksiz yukni yuklamaydi, balki uni quvvatlantiradi.

Xullas, o'zbek xalq maqollari o'zining milliy taomlarini ifodalaganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Unda o'tmishda hamda bugungi kunda iste'moldagi taomlar xususidagi qarashlar o'z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzullayeva M. An'anaviy taomlanish va transformatsion jarayonlar. O'tmishga nazar. 3-mahsus son. 2021, 512-b.
2. Искандаров Шерзод Абдуғаниевич. ЎЗБЕКИСТОН АРАБЛАРНИНГ МОТАМ МАРОСИМ БИЛАН БОҒЛИҚ ТАОМЛАР. О'tmishga nazar. Maxsus son. 2022, 304-b
3. K.Mahmudov. O'zbek tansiq taomlari. – Toshkent: Mehnat, 1989, 226-b.
4. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005, - 512 b.
5. K.Mahmudov. O'zbek tansiq taomlari. – Toshkent: Mehnat, 1989, 226-b.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ayron>. 19.08.2024. 10:10da murojaat etildi
7. <https://oz.sputniknews.uz/20151119/1094941.html>. 31.08.2024-yil 18.26 da murojaat etildi
8. <https://www.google.com/search?q=qimiz+haqida+ma%27lumot&oq=qimiz+haqida+ma%27lumot&aqs=chrome..69i57j33i160l2.9947j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8> 31.08.2024-yil 18.37da murojaat etildi

"O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI"NI O'QITISHDA TURK-MONIY ADABIYOTINING O'RNI

Alimuxamedov Rixsitilla.,
ToshDSHU dotsenti, filologiya fanlari doktori
rixsitilla@gmail.com

Annotatsiya. Qadimgi turk-moniy muhitida yaratilgan asarlar ham janr, ham badiiylik jihatidan O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida o'zining munosib o'rnini qoldirgan. Xususan, bir qator janrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida ushbu asarlarning o'rne katta. Masalan, tavbanoma ("Xuastuanivt"), duo, gimnlarning go'zal namunalari aynan shu adabiy muhitda yaratilgan. Mazkur maqolada ushbu adabiy muhitda yaratilgan asarlarning O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tutgan o'rne haqida to'xtalamiz.

Kalit so'zlar. Turk-moniy manbalari, o'zbek mumtoz adabiyoti, moniy alqovlari, duolari va tavbanomalari, sharq xalqlari adabiyoti tarixi, adabiy aloqalar.

“ÖZBEK KLASSIK EDEBIYATI”NIN ÖĞRETİLMESİNDE TÜRK-MANI EDEBIYATI’NIN ROLÜ

Alimuhammedov Rixsitilla,

doçent, filoloji doktoru, Taşkent devlet bilim ve teknoloji universitesi

Annotatsiya. Qadimgi turk-moniy muhitida yaratilgan asarlar ham janr, ham badiiylik jihatidan O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida o‘zining munosib o‘rnini qoldirgan. Xususan, bir qator janrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishida ushbu asarlarning o‘rni katta. Masalan, tavbanoma (“Xuastuanivt”), duo, gimnlarning go‘zal namunalari aynan shu adabiy muhitda yaratilgan. Mazkur maqolada ushbu adabiy muhitda yaratilgan asarlarning O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida tutgan o‘rni haqida to‘xtalamiz.

Kalit so‘zlar. Turk-moniy manbalari, o‘zbek mumtoz adabiyoti, moniy alqovlari, duolari va tavbanomalari, sharq xalqlari adabiyoti tarixi, adabiy aloqalar.

РОЛЬ ТЮРКО-МАНИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ПРЕПОДАВАНИИ «УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ»

Алимухамедов Рихситилла,

доцент, доктор филологических наук,

Ташкентский государственный университет науки и технологий

Аннотация. Древнетюркско-манихейские письменные памятники имеют свое место с точки зрения жанра и художественности в истории узбекской классической литературы. В частности, есть большое место этих произведений в появлении и развитии нескольких жанров. Например, самые красивые примеры произведения каятельных текстов («Хуастуанивт»), молитв, гимнов созданы именно в этом литературном среде. В данной статье будут рассматриваться место данных произведений в истории кзбекской классической литературы.

Ключевые слова. Тюркско-манихейские источники, узбекская классическая литература, манихейские гимны, молитвы и каятельные тексты, история литературы народов востока, литературные взаимосвязи.

IN TEACHING “UZBEK CLASSICAL LITERATURE” THE ROLE OF TURKIC MANIC LITERATURE

Alimukhamedov Rixsitilla,

*associate professor of Tashkent State University of
languages and literature, doctor of philology*

Abstract. Old Turkic literary sources have its certain place by genre and artistic in the history of Classic Uzbek literature. In particular, there are place of these works in the emerging and development of some literary genres. For example, the beautiful examples of prayer books, hymns and etc (“Khuastuanit”). This article is devoted the place of these works in the history of Classic Uzbek literature.

Key words. Turkic-Manichaeen literary sources, Classic Uzbek literature, Manichaeen hymns, dua’s and confession texts, the history of eastern people, literary interconnections.

Dunyo sharqshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini bir necha davrlarga bo‘lib o‘rganiladi. Shulardan biri turk-moniy adabiyoti deb nomlanadi. Kunimizgacha saqlanib qolgan

qadimgi turk-moniy yozma yodgorliklarini katta ikki guruhga ajratish mumkin: nasriy hamda she'riy asarlar. Quyida ularni ko'rib chiqamiz.

Moniylikda inson bilan yaratuvchi o'rtasidagi aloqalarni tartibga soluvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi turkum asarlar yaratilgan bo'lib, ular orasida kishilarning bilib-bilmay qilgan ayb-gunohlaridan tavba qilish, ularning kechirilishi so'ralgan matnlar ham bor. Shu mazmundagi asarlarni "tavbanoma" deyish mumkin. Turk-moniy muhitida yaratilgan yirik hamda to'liq holda saqlangan tavbanomalardan biri adabiyotshunoslikda "Xuastuanivt" deb nomlanadi [10, 16-20 b.]. Turkshunoslar asarda berilgan ma'lumotga tayanib, uni turlicha nomlaganlar: asarning uyg'ur yozuvli Sankt-Peterburg nusxasi so'ngida: *tügädi n(i)ğošaklarnıñ suyın yazuqın öküngü Xuastuan(i)vt*. Gapdagi *n(i)ğošak* so'zi [<sug'dcha *nywš'k*] moniy dini jamoa a'zosi – tinglovchisi~o'quvchisi deb yozilgan. Moniylikda ushbu so'z moniy diniga e'tiqod qiluvchilarning eng quyi tabaqa vakilini bildirgan [6, 358-359 b.]. *Suy* [<xitoycha] – gunoh ma'nosini anglatadi. Gapda *yazuq* so'zi bilan birga juft so'z ko'rinishida qo'llanib, *suy yazuq* – "gunoh va ayblar" [6, 513 b.] degan ma'noni anglatadi. So'zdagi *-in* qo'shimchasi qadimgi turkiy tilda qo'llangan vosita kelishigi *-n* (*-in, -in; -un, -ün*)dir [3, 156 b.]. *Ökün-* o'kin-, pushaymon bo'l- ma'nolarni anglatadi [6, 382 b.]. *-gü* sifat-dosh qo'shimchasidir [3, 177 b.]. *Xuastuan(i)vt* [<sug'dcha *χw'stw'nfı*] – moniychilarning tavba duosi ma'nosini bildiradi [6, 638 b.]. Yuqoridagi ma'nolarni yig'ib, jumlani o'zbek tiliga: **"tugadi nig'o'shaklarning gunoh va ayblarini o'kinuvchi Xuastuanivt"** deb nomlash mumkin. Asarning til xususiyatlariga ko'ra taxminan VIII–IX asrlarda turkiy tilga o'girilgan, degan fikrni berish mumkin.

Asarning mavjud sug'dcha variantining ikki uzindisi V.Xenning tomonidan nashr etilgan bo'lib, olimning ta'kidlashicha, asarning sug'dcha varianti turkiysi bilan deyarli bir xil (mot á mot). Parchalarni asarning turkiy variantiga solishtirganda ular asarning yakunlovchi bo'limi, o'ninchi hamda o'n birinchi bo'limlarining bosh qismiga to'g'ri keladi [2, 63-67 b.].

Yuqorida keltirilgan barcha fikrlar asosida "Xuastuanivt" haqida quyidagi xulosalarni berish mumkin:

1) asarning qo'lyozma hamda uzindi ko'rinishidagi nusxalarining ko'pligi hamda moniy va uyg'ur xatida ko'chirilgani uning o'z davrida mashhur bo'lganini, topinuvchilar orasida keng yoyilganini tasdiqlaydi;

2) asarning nusxalari yozuvning klassik uslubida bitilgani uning muqaddas kitoblardan ekanini isbotlaydi;

3) asar jamoa bo'lib o'qish bilan bir qatorda yakka holdagi ibodat uchun ham ishlatilgan. Asar butun ko'rinishda ham, yakka bo'lim holida ham ko'chirilib, foydalanilgan;

4) asar nafaqat o'tinch-yolborish uchun, balki ommani moniylik bilan tanishtirish uchun ham xizmat qilgan. Chunki asar mazmunida turli gunoh va savob bo'lgan ishlar keltiriladi;

5) "Xuastuanivt" badiiy asar. Unda so'z qo'llash, badiiy tasvir vositalari, so'zlarning qo'shma va juft holda ishlatilishi, asarning bir tomondan, ta'sirli chiqishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, o'sha davr tarjimachiligining qay darajaga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Qadimgi turk-moniy muhitida yaratilgan bir guruh matnlar mazmuniga ko'ra o'zida tangri yoki boshqa ilohlardan yaxshi niyatlarning amalga oshishi uchun so'raladigan tilak va istaklarni qamraydi. Mazkur asarlar qo'lyozmalarida ularning nomi zikr etilmagan. Shunday esa-da, ular mazmunan o'zbek tilidagi "duo" so'zi anglatgan mazmunga to'g'ri keladi. "Duo barcha dinlarning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. U ibtidoiy davrda so'zning sehrli kuchiga ishonish, uning yordamida ilohiy kuchlardan foydalanish mumkin degan ishonch asosida shakllangan" [12, 383 b.]. Har bir diniy ta'limotda duolarning o'ziga xos ahamiyati mavjud. Ular ushbu ta'limotning ajralmas qismi hisoblanadi.

Turk-moniy adabiy manbalari ichida duolarning alohida o'rni bor. Ularda topinuvchining turli ayb-gunohdan saqlanishi, qilgan gunohlaridan o'tinch tilanadi. Bu yo'lda gunohlarini kechirilishi uchun turli tangrilardan panoh so'raladi. Ba'zi duolarda rohiblarning burchi, iltijoni amalga oshirishda qay holatda turish, ularning darajalari hamda ba'zan, mazkur dinning qaysi shaharlarga, o'lkalarga yoyilganligidan xabar beruvchi ma'lumotlar ham uchraydi. Bundan tashqari, ushbu duolar

til tarixiga o'ta qimmatli ma'lumotni, jumladan, duo matnining tuzilishi, unda uslub, so'z qo'llanishi kabi ko'plab masalalarga oydinlik kiritadi. Yana bir alohida janrga ega asarlardan biri tush ta'biri bilan bog'liq fol kitoblari bo'lib, ular turkshunoslikda qadimdan mashhur bo'lgan [7, 298-301 b.]. Fol bilan bog'liq asarlar islom davrida ham mashhur bo'lgan. Ularning asosida Qur'oni karim oyatlari orqali tushni ta'bir qilish yotadi [11, 269-270 b.]. Hozirgi kunda dunyoning ba'zi mamlakatlarida she'riy asarlar, kitoblar orqali fol ochilgan [9]. Qadimgi turkiy muhitda yaratilgan fol kitoblaridan biri fanda "Irq bitigi" nomi bilan mashhur. U ko'k turk yozuvidagi qog'ozga bitilgan kunimizgacha to'liq holda yetib kelgan yagona asar hisoblanadi [8, 80-92 b.].

Turk-moniy adabiyotida xudolar, payg'ambar sharafiga, turli diniy marosimlarga atab yaratilgan she'riy asarlar mavjud. Ular mazmuniga ko'ra g'arb adabiyotshunosligidagi gimnlarga o'xshaydi. ularni turkiy atalishi alqov deyiladi. Turk-moniy alqovlari Moniy shaxsi, Tong tangri, moniylikdagi tangrilar nomi, moniylikdagi ro'za tutish, ibodat qilishdan oldin aytiladigan alqov turlari shaklida yetib kelgan [1, 135-280 b.]. Ularning eng kattasi Moniyga atab yozilgan alqovdir (Great Hymn to Mani).

Turk-moniy muhitida yaratilgan asarlar orasida turli shakldagi diniy-falsafiy mazmunga ega bo'lgan yodgorliklar ham bor. ular kichik hajmli, turli voqealar negizida yaratilgan asarlardir. Ammo moniylik muhitida yaratilgan. ular quyidagilardir: do'zax tasvirlangan she'r, sana bilan bog'liq matn, o'qish kitobi, moniylik to'g'risida hikoya, moniy yozuvida bitilgan vasiqalar hamda turkiy adabiyotdagi ilk lirik she'r. Yuqorida sanab o'tilgan manbalar hozirda dunyoning turli qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda. Ko'pchiligi mutaxassis olimlar tomonidan u yoki bu jihatidan o'rganilgan. Yuqorida sanab o'tilgan manbalardan tashqari yana bir guruh manbalar o'zida moniylikning turkiy xalqlar orasiga yoyilishini o'zida saqlaydi. Masalan: bugungi kunda yaratilgan tarix kitoblarida moniylikning turkiy xalqlar orasiga yoyilishi, uning rivojlanishi hamda davlat dini darajasiga ko'tarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, asosan xitoy hamda arab manbalari [4, 241-243 b.; 5, 189 b.] orqali yoritilgan. Ushbu tarixiy jarayonni yorituvchi yana bir guruh manbalar turkiy xalqlarning qadimgi yozuvlarida bitilgan. Bular sirasiga turk-moniy muhitida yaratilgan va bugungi kungacha saqlanib qolgan tarixiy-badiiy asarlar kiradi. Ulardan biri uyg'ur xatida yetib kelgan.

Sharq adabiyoti, xususan musulmon mintaqa adabiyotidagi ko'plab janrdagi asarlarning paydo bo'lishi va shakllanishidagi, xususan, alqovlarning, duolarning, she'riy asarlarning shakllanishi va rivojlanishida turk-moniy adabiy muhitida yaratilgan asarlar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, tavbanomalar, duo matnlari negizida keyingi davr adabiyotida duo matnlarining qay ko'rinishda shakllanishi, ularda so'zlarning tanlanish prinsiplari, uslubi yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki bu turdagi asarlarda o'qilayotgan matn o'quvchining ongi, qalbiga yetib borishi kerak. Albatta bu o'rinda so'zning kuchini ko'rsatish kerak. Ayni hol turk-moniy tavbanoma va duo matnlarida o'z aksini topgan.

Fol kitoblari ham qadimdan mashhurligi, hattoki hozir ham ular ishlatilishining guvohi bo'lamiz. Fol kitoblarining matn tuzilishi ham o'z takomil bosqichini o'sha turk-moniy muhitidan olgan, deya aytishimiz mumkin. chunki fol kitoblari matnlari avvaldan qisqa va lo'nda, aniq va ixcham holda bo'lishi kerakligi "Irq bitigi"dan ma'lum.

Gimnlar antik davrdan ma'lum bo'lsa-da, uning keyingi davr adabiyotida taraqqiy etishi turk-moniy muhitidan yetib kelgan manbalardan ma'lum. Ular keyingi davr turkiy adabiyoti tarixida shu janrdagi asarlarning rivojlanishi va uslubiy xosligini belgilashda katta xizmat qildi. Shu bilan birga turk-moniy adabiy muhitida yaratilgan she'riy parchalar, ularda fikrning berilishi keyingi davr she'rshunosligi, xususan, turkiy she'riyatda barmoq vaznining qay darajada rivojlangani va bu muhitdagi she'rlar aruz tizimida yaratilgan parchalardan kam emasligini isbotlamoqda. Turkiy xalqlar orasiga aruzning kirib kelishidan avval barmoqning rivoji, unda she'r yozish, mavjud she'rlarning badiiy hamda uslubiy go'zalliklarini ayni muhitda yaratilgan parchalar isbotlab turibdi. Turk-moniy muhitida yaratilgan tarixiy asarlar ham o'zida faqatgina tarixiy haqiqatlarni yetkazish bilan emas, balki badiiy ifodani ham aks ettirishi, bu an'ananing keyingi davr tarix kitoblarida (Navoiy, Abulg'ozining tarixga atab bitilgan kitoblari) ko'rishimiz mumkin.

Demak, yuqorida sanab o'tilgan asarlar keyingi davr sharq xalqlari, xususan, turkiy adabiyotining keyingi davriga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Ta'sir ma'lum janrdagi asarlarning tuzilishi, so'z tanlanishi, badiiy mahorat kabi qatlamlarida namoyon bo'lgan. bir so'z bilan aytganda, turkiy, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotidagi ba'zi janrdagi asarlarning shakllanishi va rivojlanishida turkmoniy adabiy muhitida yaratilgan yozma manbalarning o'rni katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Clark L. Uygur Manichaeon Texts: Volume II. Liturgical Texts: Texts, Translations, Commentary. Corpus Fontium Manichaeorum: Series Turcica II. – Turnhout: Brepols Publishers, 2013.
2. Ercilasun A.B. Türk dili tarihi. Başlangıçtan yirminci yüzyıla. – Ankara: Akçağ, 2008.
3. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. – Toshkent, 2009.
4. Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. I том. – Тошкент: Фан, 1968.
5. Виденгрэн Г. Мани и Манихейство. Пер. с нем. Иванова С.В. – Санкт-Петербург: Евразия, 2001.
6. Древнетюркский словарь. – Ленинград, 1969.
7. Зарубежная тюркология. Выпуск I. Древние тюркские языки и литературы. – Москва, 1986.
8. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М.-Л.: Издательство АН СССР, 1951.
9. Содиқов Қ.П. Монийчилар тавбаномаси // Филология масалалари. 2003/1. – Тошкент, 2003.
10. Стори Ч.А. Персидская литература. Био-библиографический обзор. Часть I. Кораническая литература. Всеобщая литература. История пророков и ранний ислам / Перевел с английского, переработал и дополнил Ю.Э. Брегель. – Москва: Главная редакция Восточной литературы, 1972.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3 том. Гидрофилия – Зебра. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.

**VASLIYNING TURKIY MEROSIDA ADABIY TA'SIR,
IZDOSHLIK MASALALARI**

Muxitdinova Badia Muslixiddinovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori

badeamuhitdinova@gmail.com

Annotatsiya. *Vasliy Samarqandiy ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan ijodkorlar qatorida Navoiy, Lutfiy, Fuzuliy, Muqimiy, Furqat kabi o'zbek va sharq mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridandir. Ular bevosita Vasliyning tafakkur dunyosini boyitgan, ma'nolar olami bilan to'yintirgan. Bunga shoirning "Tuhfat ul-ahbob" devonidagi turli janrdagi lirik asarlari asos bo'ladi. Maqolada Vasliy Samarqandiy ushbu shoirlarning an'anasini davom ettirgan izdosh, ularning o'ziga xos yo'liga ega bo'lgan vakili sifatida talqin va tadqiq etildi.*

Kalit so'zlar. *Turkiy meros, devon, adabiy faoliyat, adabiy ta'sir, izdoshlik masalalari, muxammas.*

Allambergenov Davronbek Maxsudovich Abdulla Oripov she'rlarining qoraqalpochka tarjimalarida frazeologik birliklarning uslubiy-semantik tahlili	143
Muxammadiyeva Sanobar Baxtiyor qizi O'zbek va turk tili maktab darsliklarida fonetik materiallar haqida	146
Xummedova Ogulnavat Mavlanberdiyevna O'zbek va turkman tillarida ot yasovchi qo'shimchalarning o'xshash jihatlari	150
G'affarberganova Gulnoza Maqsudbek qizi Erkin a'zamning "Yozuvchi" hikoyasida frazeologizmlarning qo'llanishi	152
Mamarasulova Iroda Ot so'z turkumining ko'makchilashishi	155
Nartosheva Mukaddas Voxid qizi Abdulla Qahhor hikoyalarida kinoya va tag ma'noni ifodalovchi birliklar ("Kartina", "Ko'k konvert" va "Kampirlar sim qoqdi" hikoyalari misolida)	158
Utayeva Dilobar Utkir qizi Mirmuhsin asarlarida kinoya va tag ma'noni ifodalovchi birliklar ("Me'mor" romani misolida)	160
Xo'jayorov Bahrom Alisher o'g'li Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qo'llangan antroponimlar tahlili	163
Abduvohidova Dildora Fazliddin qizi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida subkodlardan foydalanish	166
Aslanova Marjona Azamatjonovna Milliy til va adabiy til	168
Mamilova Sabina Isoqovna Bir bo'g'inli turkiy so'zlar etimologiyasi ("Devoni lug'otit turk" asari misolida)	171
Ahmadov Odilbek Alibek o'g'li Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasida uzual va okkazonal ma'no	174
Choriqulova Fayro'za Telman qizi Mustaqil so'z turkumlari va modal so'zlar o'rtasida transpozitsiya hodisasi	178
G'aniyeva Sevinch Erkin qizi Zulfiyaning ayrim she'rlarida metafora	181

II SHO'BA. TURKIY ADABIYOT TADQIQI VA TA'LIMI

Hasanov Shavkat Ahadovich Chingiz Aytmatov va o'zbek adabiyoti	185
Yakhshiyeva Zebo Rashidovna Activities of female scientists, scholars in the research of Timur studies: chronology and education	193
Nasirov Azimiddin Normamatovich 70-yillar romanchgiligini o'rgatishning ustuvor yo'nalishlari	197
Davronova Mahfuza Isroilovna O'zbek xalq maqollarida milly taomlar ifodasi	201
Alimuxamedov Rixsitilla "O'zbek mumtoz adabiyoti"ni o'qitishda turk-moniy adabiyotining o'rni	205
Muxitdinova Badia Muslixiddinovna Vasliyning turkiy merosida adabiy ta'sir, izdoshlik masalalari	209
Ismoilov Olimxoja Burxonxojaevich, Hakimov Muxamadali Rafiqovich G'arb va Sharq she'riy an'alarida sevuvchilarning tasvirlari: qiyosiy tahlil	213
Муродзода Нодира, Абдуллаева Парвина Толибжоновна Языковые и выразительные средства в касыде "Тухфат ул-афкар" Алишер Навои	220